

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti va Pitsburg Davlat Universiteti “2 + 2” dasturiga talabalarni qabul qilishni boshladi.

4-may kuni Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti rektori **Inoyatxodjaev J.Sh.** va Pitsburg Davlat Universiteti prezidenti **Skott S.A.** o'rtasida Zoom onlayn platformasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv PDU va TTPUning **“Mashinasozlik”** yo'nalishida bakalavriat **“2 + 2”** dasturiga talabalarni qabul qilish boshlanganiga bag'ishlangan o'zaro tabrik so'zlari bilan boshlandi.

Suhbat davomida tomonlar magistrlik dasturini yo'lga qo'yish rejalari haqida muhokama qildilar. Shuningdek, **“Qurilish va arxitektura”** yo'nalishi bo'yicha ham **“2+2”** dasturini ishlab chiqish taklifi muhokama qilindi.

“Universitetimizning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, bizning talabalarimiz endi nafaqat Italiya, balki Amerika ta'limini ham olishlari mumkin”, – deydi TTPU marketing bo'limi boshlig'i Oybek Djuraev.